

ZAMONAVIY TA'LIMDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: MOTIVATSION VA NAZARIY ASOSLAR

Xodjayeva Mahliyoxon Odiljon qizi,

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Pedagogika yo'nalishi 1-kurs magistranti

makhliyo.khodjayeva.9315@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18765622>

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va motivatsion asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Tanqidiy fikrlash shaxsning mustaqil, tahliliy va baholovchi tafakkur faoliyati sifatida qaraladi va zamonaviy mutaxassis uchun zarur kompetensiyalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston olimlari Muslimov N.A., Xodjayev B.N., Qodirova M.A., Tursunov Sh.K. va boshqalar tanqidiy fikrlashni talabaning axborotni tahlil qilish, baholash, asosli xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, kompetensiya nafaqat kognitiv, balki motivatsion va refleksiv komponentlarni o'zida mujassamlashtiradi. Xorijiy tadqiqotlarda esa tanqidiy fikrlash XXI asr ko'nikmalarining ajralmas qismi sifatida o'rganilgan bo'lib, talabaning analitik tafakkuri, metakognitiv qobiliyatlari va reflektiv faoliyati bilan bog'liq ekanligi Facione, Halpern, Paul & Elder ta'kidlaydilar. Tadqiqotda tanqidiy fikrlash kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va tarkibiy tuzilmasi, shuningdek, uni rivojlantirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida motivatsion yondashuv talabaning shaxsiy faolligi va o'quv faoliyatiga ongli yondashuvini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini barqaror shakllantirish ta'lim jarayonini tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Ushbu tadqiqot ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lib, oliy ta'limda talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, kompetensiya, pedagogik yondashuv, motivatsiya, refleksiya, oliy ta'lim, ta'lim jarayoni, kognitiv rivojlanish, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlar.

Abstract. The present article examines the theoretical and motivational foundations of the development of critical thinking competence among higher education students. In the context of modern education, the ability to analyze, evaluate, and synthesize information has become a key indicator of intellectual development and professional competence. Critical thinking is considered not merely a cognitive process but an integrative phenomenon that includes motivational, reflective, and evaluative components. The study highlights the significance of pedagogical approaches that foster independent thinking and problem-solving skills. Motivational factors are identified as central to enhancing students' engagement in the learning process, as internal motivation drives reflection, analysis, and active knowledge construction. The research reviews recent findings by Uzbek scholars, including Muslimov, Xodjayev, and Qodirova, as well as international studies by Facione, Halpern, Paul & Elder providing a comparative perspective on methods and strategies for developing critical thinking. The article emphasizes the effectiveness of interactive teaching methods, including case studies, discussions, and problem-based learning, in promoting critical thinking competence. Reflective practices are shown to strengthen the integration of cognitive and motivational components, leading to sustainable development of critical thinking skills. The study concludes that structured pedagogical interventions, aligned with motivational principles, are essential for cultivating critical thinking in higher education students, preparing them to become analytical, independent, and socially responsible professionals.

Key words: Critical thinking, competence, pedagogical approach, motivation, reflection, higher education, learning process, cognitive development, independent thinking, problem-based situations.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и мотивационные основы развития компетенции критического мышления у студентов высших учебных заведений. В условиях современного образования способность анализировать, оценивать и синтезировать информацию становится ключевым показателем интеллектуального развития и профессиональной компетентности. Критическое мышление рассматривается не только как когнитивный процесс, но и как интегративное явление, включающее мотивационные, рефлексивные и оценочные компоненты. В исследовании подчеркивается значимость педагогических подходов, способствующих формированию самостоятельного мышления и навыков решения проблем. Мотивационные факторы рассматриваются как центральные для повышения вовлеченности студентов в образовательный процесс, так как внутренняя мотивация стимулирует рефлексию, анализ и активное усвоение знаний. Анализируются современные исследования узбекских ученых, таких как Муслимов, Ходжаев, Кодирова, а также международные исследования Фасионе, Халперна и Паул и Элдер, что позволяет сравнить методы и стратегии развития критического мышления. Статья подчеркивает эффективность интерактивных методов обучения, включая кейс-стади, дискуссии и проблемно-ориентированное обучение, для формирования компетенции критического мышления. Рефлексивные практики способствуют интеграции когнитивных и мотивационных компонентов, обеспечивая устойчивое развитие навыков критического мышления. В заключение делается вывод о том, что структурированные педагогические вмешательства, основанные на мотивационных принципах, необходимы для формирования критического мышления у студентов и подготовки их к роли аналитических, самостоятельных и социально ответственных специалистов.

Ключевые слова: Критическое мышление, компетенция педагогический подход мотивация рефлексия высшее образование учебный процесс когнитивное развитие независимое мышление проблемные ситуации.

Kirish. XXI asr ta'limi tezkor o'zgarishlar, texnologik innovatsiyalar va global integratsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki talabalarni doimiy o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qodir qiluvchi ko'nikmalar bilan jihozlashdir. Raqamli transformatsiya, axborot oqimining keskin ortishi va mehnat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida talabning nafaqat bilim egallashi, balki mustaqil, tahliliy va tanqidiy fikrlay olish kompetensiyasiga ega bo'lishi ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu jihatdan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil uchun Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "Bugungi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarimoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinadi." O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida yoshlarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va intellektual salohiyatini oshirish ta'lim tizimining asosiy maqsadi ekanini alohida ta'kidlab kelmoqda. Prezident tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasida ta'lim sifati va inson kapitalini rivojlantirish davlat taraqqiyotining poydevori sifatida belgilangan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim

qamrovini kengaytirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda talabalarining kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida ko'rsatilgan. Ushbu strategik hujjatlar ta'lim jarayonini natijadorlik, kompetensiyaviy yondashuv va ichki motivatsiyani kuchaytirish asosida tashkil etishni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashning barqaror rivojlanishi talabning ichki motivatsiyasi, o'quv faoliyatiga ongli yondashuvi va reflektiv faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilgan strategik vazifalar talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasini tizimli va ilmiy asosda hal etishni talab etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliyotda mazkur kompetensiyani shakllantirish ko'proq nazariy yondashuvlar bilan cheklanib, motivatsion mexanizmlarni chuqur integratsiya qilish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Natijada talabalarining mustaqil tahlil qilish, dalillash va asosli xulosa chiqarish ko'nikmalari barqaror rivojlanmayapti.

Shu bois, zamonaviy oliy ta'lim sharoitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun pedagogik jarayonni motivatsion yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish va amaliy mexanizmlar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va yechimlar ilgari suriladi.

Ushbu holatlarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar dolzarb sanaladi:

- motivatsion-integrativ modelni ishlab chiqish va joriy etish.
- muammoli va reflektiv ta'lim texnologiyalarini tizimli qo'llash.
- talabalarining ichki motivatsiyasini kuchaytiruvchi baholash tizimini joriy etish.
- professor-o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish.
- ta'lim jarayonini raqamli va interfaol muhit bilan uyg'unlashtirishni ilgari suradi.

Adabiyotlar tahlili.[1] Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida nazariy, qiyosiy va empirik tadqiqotlar asosida o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashni shakllantirish ta'lim modernizatsiyasining muhim yo'nalishi sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston ta'lim siyosatida yoshlarning mustaqil fikrlashi va intellektual salohiyatini oshirish masalasi davlat darajasida belgilangan. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev o'z asarida jamiyat taraqqiyoti avvalo ilm-fan va ta'lim sifati bilan belgilanadi, deya ta'kidlab, yoshlarni erkin va tanqidiy fikrlashga o'rgatish zarurligini ilgari suradi. Shuningdek, muallif "ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasida inson kapitalini rivojlantirishni strategik vazifa sifatida asoslaydi. Nazariy-metodologik jihatdan N.A. Muslimov kompetensiyani bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar integratsiyasi sifatida izohlab, kasbiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantirish mexanizmlarini tahlil qiladi. N.N. Azizxo'jayeva esa pedagogik texnologiyalar orqali reflektiv faoliyatni rivojlantirish tanqidiy fikrlashning muhim omili ekanini asoslaydi. B.X. Xodjayevning ilmiy maqolasida oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammoli o'qitish va

interfaol metodlar bilan bog‘lanadi. Tadqiqot qiyosiy-tahliliy metod asosida olib borilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini faollashtirish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Xorijiy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash empirik va tajriba-sinov metodlari asosida o‘rganilgan. P.A. Facione tomonidan o‘tkazilgan Delphi tadqiqoti ekspertlar fikri asosida tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlarini aniqlagan. D.F. Halpern eksperimental tadqiqotlar orqali tanqidiy fikrlashni o‘qitish strategiyalarining samaradorligini asoslagan. R. Paul va L. Elder esa tanqidiy fikrlashni metakognitiv va refleksiv jarayon sifatida konseptual modelda yoritgan⁸. Ushbu ilmiy ishlanmalar tahlili shuni anglatadiki, mavjud tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashning kognitiv jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, motivatsion omillarni tizimli integratsiya qilish yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqolada tanqidiy fikrlash kompetensiyasini motivatsion yondashuv asosida rivojlantirish ilmiy muammo sifatida asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosi nazariy va qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganildi. Tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmunini aniqlashda kontent-tahlil metodidan foydalanildi. Kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini asoslashda strukturaviy-funksional tahlil amalga oshirildi. Motivatsion omillarning ta‘sirini ochib berishda mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Mavjud pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirish jarayonida klassifikatsiya va sistemalashtirish metodlari qo‘llandi. Olingan natijalar asosida konseptual xulosalar ishlab chiqildi.[3]

Tahlil Va Natijalar. Tadqiqot jarayonida zamonaviy ta‘lim sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion va nazariy asoslari tizimli tahlil qilindi. Tahlil jarayonida oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Prezidentning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ta‘lim sifatini oshirish, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalalari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Shuningdek, oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan qarorlarda innovatsion yondashuv, tahliliy fikrlash va kompetensiyaviy ta‘lim ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Prezident ta‘kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda zamonaviy bilim va mustaqil fikrlashga ega yoshlar hal qiluvchi kuchdir.” Ushbu g‘oya tadqiqot mazmuni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tanqidiy fikrlashni shakllantirishni strategik zarurat sifatida asoslaydi. Nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar asosida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi hamda ularning motivatsion mexanizmlari tahlil qilindi. Natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi. [5]

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy tahlili

Komponent	Mazmuni	Motivatsion asos	Amaliy natija
Kognitiv komponent	Axborotni tahlil qilish solishtirish dalillash	Bilishga ichki ehtiyoj	Asosli xulosa chiqarish
Refleksiv komponent	O'z fikrini baholash va qayta ko'rib chiqish	O'zini rivojlantirishga intilish	Ongli va mustaqil qaror
Muammoli-tahliliy komponent	Muammoli vaziyatni aniqlash va yechim topish	Ijodiy faollik	Innovatsion fikrlash
Kommunikativ komponent	Dalillangan fikrni himoya qilish	Ijtimoiy faollik	Mantiqiy munozara olib borish
Integrativ natija	Barcha komponentlar uyg'unligi	Barqaror ichki motivatsiya	Tanqidiy fikrlovchi shaxs shakllanishi

Tahlil shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi faqat bilim darajasi bilan emas, balki talabning ichki motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Agar motivatsion omillar sust bo'lsa, nazariy bilim amaliy natijaga aylanmaydi. Shu sababli kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik jarayon muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar va interaktiv metodlar orqali tashkil etilishi zarur. Amaliy kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, muammoli savollar va bahs-munozaralarga asoslangan darslar talabalarning tahliliy faolligini oshiradi. Refleksiya elementlari kiritilgan mashg'ulotlarda esa mustaqil fikrlash darajasi sezilarli darajada yuqorilaydi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Yakuniy diagnostika natijalariga ko'ra, zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

1. Nazariy asoslarning aniq belgilanganligi
2. Motivatsion muhitning shakllantirilishi
3. Muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim texnologiyalari
4. Refleksiv faoliyatni yo'lga qo'yish
5. Kompetensiyaviy baholash tizimini qo'llash

Shu asosda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish modeli zamonaviy oliy ta'limning strategik maqsadlariga mos ravishda raqobatbardosh, mustaqil va analitik fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.[6]

Xulosa va takliflar. Zamonaviy ta'limda talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda motivatsion va nazariy asoslarini tahlillar, kuzatuvlar va tajriba natijalari orqali aniqlashga qaratildi. Tahlillar tanqidiy fikrlash ko'p komponentli tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi. Uning shakllanishi kognitiv, refleksiv va motivatsion omillarning o'zaro bog'liqligiga tayangan holda amalga oshadi. Bilim berish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yetarli emas. Jarayonda ichki motivatsiya hal qiluvchi omil hisoblanadi. Talabning mustaqil fikr yuritishga tayyorligi kompetensiyaning markaziy ko'rsatkichidir. Muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim metodlari fikrlash

faolligini oshiradi. Refleksiv faoliyat esa o'z fikrini tahlil qilish va baholash ko'nikmasini shakllantiradi. Interaktiv yondashuvlar dalillangan fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv mazkur jarayonning metodologik asosi sifatida namoyon bo'ldi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tashkil etilishi zarur. Ta'lim mazmunini muammoli topshiriqlar bilan boyitish samaradorlikni oshiradi. Baholash mezonlari ham kompetensiyaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Motivatsion muhit yaratish pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Mustaqil izlanish faoliyati kompetensiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash intellektual yetuklik mezonini sifatida namoyon bo'ladi. U akademik va kasbiy samaradorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida motivatsion mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uzluksiz jarayon sifatida qaralishi kerak.

Mazkur yondashuv ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Olingan natijalar metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'la oladi.

Takliflar.

1. O'quv jarayoniga tizimli muammoli vaziyatlar modelini joriy etish.
2. Refleksiv faoliyatni majburiy pedagogik element sifatida kiritish.
3. Motivatsion muhitni kuchaytiruvchi baholash tizimini ishlab chiqish.

O'qituvchilar uchun tanqidiy fikrlash metodikasi bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.

5. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashning mezonli indikator tizimini yaratish. Bu takliflar zamonaviy pedagogik ta'limda talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda motivatsion va nazariy asoslarini samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston 2021.
2. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya 2012.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent 2006.
4. Xodjayev B.X. Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalalari. Pedagogik ta'lim 2019 №3.
5. Halpern D.F. Thought and Knowledge. - 2014.
6. Paul R. Elder L. Critical Thinking. - 2014